



CHARACTERISTICS OF SYNONYMS

Narbayeva Xosiyat

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of Turkic Languages, 2nd level student of Uzbek language education in foreign

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233763>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2024
Accepted: 20th May 2024
Online: 21th May 2024

KEYWORDS

Synonym, verb, noun, adjective, adverb, synonyms of auxiliary word groups, linguistics.

ABSTRACT

This article provides information about synonyms. Examples of synonyms for nouns, adjectives, verbs, adverbs, and auxiliary word groups are given.

SINONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233763>

ARTICLE INFO

Received: 14th May 2024
Accepted: 20th May 2024
Online: 21th May 2024

KEYWORDS

Sinonim, fe'l, ot, sifat, ravish, yordamchi so'z turkumlariga oid sinonimlar, tilshunoslik.

ABSTRACT

Bu maqolada sinonimlar haqida ma'lumot berildi. Ot, sifat, fe'l, ravish va yordamchi so'z turkumlariga oid sinonimlarga misollar keltirildi.

Bugungi kunda tilshunoslikning ko'plar sohalari rivoj topmoqda. Har bir davlat mustaqillikka erishganidan so'ng, albatta, o'zining davlat ramzlari, pul birligi bilab bir qatorda alifbosi va grammatikasini ham ishlab chiqadilar. O'zbek tili sinonimlarga juda boy. Sinonimlar emotsina-ekpressivlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilarning ijodida sinonimlarda mohirlik bilan foydalanganliklariga guvoh bo'lamiz. Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: yelka, kift, o'miz (birinchi guruh); in, uya, oshyon (ikkinchi guruh); nur, shu la, yog'du, ziyo (uchinchi guruh) va b.lar. Bunday guruhlar tilshunoslikda sinonimik qatorlar deb nomlanadi.¹ Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi (gr. synonymos – "bir nomli"). Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik

¹ H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" – 2005



munosabat deb yuritiladi.² Sinonimlar ma'nolarning kuchayishi orqali ketma-ket qo'ysak sinonimik qator vujudga keladi. Shuningdek sinonimlar ijobiy va salbiy bo'yoqqa ega bo'ladi. Masalan: Yuz, chehra, jamol kabilarda ijobiy bo'yoqdorlik bo'lsa, turq, aft, bashara kabilarda salbiy bo'yoqdorlik bor. Har bir sinonimik qatorda ijobiy ham salbiy ham bo'yoqqa ega bo'lmagan, barcha uslublarda birday ishlatiladigan so'z "betaraf so'z" yoki "dominanta" atamasi bilan ataladi. Sinonimlar har bir so'z turkumida mavjud. Masalan: Yuz, bet, aft, bashara, turq, chehra, jamol, diydor, oraz, uzor, ruxsor. Bu sinonimik qatorda "yuz" leksemasi dominanta hisoblanadi.

Ot so'z turkumiga oid sinonimlar va ularga misollar: Yo'lovchi, yo'lchi, o'tkinchi. Bu sinonimik qatorda "yo'lovchi" leksemasi dominanta hisoblanadi. Ko'chalarda *yo'lovchilar* siyraklashdi. Bu sinonimik qatorda "yo'lchi" leksemasi dominanta hisoblanadi. Yakka *yo'lchi* manzilga yetolmasdi. Yo'lda bitta-yarimta *o'tkinchi* uchrab turadi. Shamol, shabada, yel, sabo. Bu sinonimik qatorda shamol leksemasi dominanta. Tuyani *shamol* uchirsa, echkini osmonda ko'r. Bir ozdan keyim Amudaryo tomondan esgan salqin *shabada* bo'g'iq havoni tarqatib yubordi. Tun ayoz, izg'iriy *yel* to'rt tarafga yugurib, jon achitmoqchi bo'lar edi. Cho'ntak, kissa, karmon, hamyon bu sinonimik qatorda cho'ntak dominanta hisoblanadi. Biror joyda topilsa nogoh gavhar donasi, *cho'ntagi* teshik har kim da'vo qilgan hamisha. Sherali *kissasidan* bloknolini olib, chiroq shu'lasiga yaqin bordi-da, unga bir nimalar yozib qo'ydi. Yumaloq xat yozishni kasb etgan tuhmatchi ig'vogarlarning kasbi *karmon* kesuvchi kissavurlardan ham tubandir. *Hamyondan* o'margani bir so'mmi, yuz so'mmi bari - bir - kissavur. Ahd, qaror, va'da, lafz bu sinonimik qatorda ahd so'zi sinonimik qatorda dominanta so'z hisoblanadi. Samandar otasining bergan *qarorlaridan* mamnun bo'ldi. Men hamma ishni bajaraman, *va'da* beraman, aka. *Lafzida* turmaydigan insondan yaxshilik kutish noto'g'ri. *Ahdida* turmoq mardlarning ishi.

Sifat so'z turkumiga oid sinonimlarga misollar. Ahamiyatsiz, e'tiborsiz bu sinonimik qatorda ahamiyatsiz leksemasi dominanta hisoblanadi. Nodira barcha ishlariga *e'tiborsiz* qarab, o'yin - kulguga berildi. Bo'ksam ustiga bir oz xanjar uchi tegib o'tgan bo'lsa ham, *ahamiyatsiz*. Azobli, jafoli, uqubatli, zahmatli, alam-iztirobli, achchiq, sitamli bu sinonimik qatorda azobli leksemasi dominanta hisoblanadi. Nusratulla keyingi vaqtlarda bu *azobli* o'ylardan vaqtincha bo'lsa ham qutilishning birdan-bir yo'lini topib olgan. Shoir o'zbek xalqining tarixiy kishilari obrazini, boy va go'zal tabiatini, *jafoli* o'tmishini, bugungi farovon turmushini tasvirlaydi. G'ulomjon bu kekxa dunyoda juda kam yashagan bo'lsa ham, boshidan juda ko'p qiyin, *uqubatli* voqealarni o'tkazdi. Kishining ichki hissiyotini yuzidagi o'zgarishlardan tezda payqab oluvchi Islomxo'ja qizidagi *alam-iztirobli* umrning izlarini darhol sezdi. Sevgining shirin onlari singari *sitamli*, alamli, shafqatsiz kulfati ham bo'ladi. Baxtli, baxtiyor, saodatli, toleli, mas'ud bu sinonimik qatorda baxtli leksemasi dominantadir. Ilohim, *baxtli* bo'! Onangga, otangga rahmat, senga ish o'rgatishibdi. Oyoqiz issiq yuzini sevimli erining ko'ksiga qo'yib, qalbi quvonch bilan to'lib toshardi va o'zini chindan ham *baxtiyor* his qilardi. Baxtli va *saodatli* yashash hammaga ham nasib etavemaydi. *Toleli* odam hammaga yaxshilik qiladi. Esini taniganidan boshlab onasi bilan kechirgan zamonla mas'ud, lekin qaytarulmas bir tush kabi Yo'lchining ko'z oldidan bir-bir o'tdi.

² B.Mengliyev. Hozirgi o'zbek tili "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti Toshkent - 2018



Fe'l so'z turkumiga oid sinonimlar. Eslamoq, xotirlamoq, yodlamoq, yod etmoq, yo'qlamoq bu sinonimik qatorda eslamog leksemasi dominanta hisoblanadi. Yangi direktor. Qizning kuldargichiga, labi ustidagi chiroyli xoliga ko'zi tushib, Navoiyning bir baytini nogoh *esladi*. Qiz butun vujudini to'satdan qoplagan og'riq bilan onasini *xotirladi*. Xotira va qadirlash kunida ikkinchi jahon urushida vafot etganlarni *yodlashadi*. Salima shu vaqtda onasini *yod etishni* xohladi. Namangan shahridan ketsam, meni *yo'qlar* kishim bormu Mashrab.

Ravish so'z turkumiga oid sinonimlar. Tez, ildam, jadal, shitob, shaxt, zud bu sinonimik qatorda tez leksemasi dominanta hisoblanadi. Shoir daftarchasini tizziga qo'yib, *tez-tez* yozar edi. Miryoqub tez harakat qiladigan, *ildam* harakat qiladigan kishi. Fan-texnika *jadal* sur'atlarda rivojlanmoqda. Har ishda shitob qilmag'aysan, Bu demak, murodg'a yetmag'aysan. Birdaniga yuragi hovliqib, *shaxt* o'rnidan turib, yo'la tushdi.

Yordamchi so'z turkumlariga oid sinonimlar. Lekin, biroq, ammo, illo bu sinonimik qatorda lekin leksemasi dominantadir. -To'g'ri, o'zi cho'loq-ku, *lekin* shamoldan tez uchadi, hayronman, ishni puxta qiladi. Bu juda qiyin ish, *ammo* bajaramiz. Chavandozlardan biri marraga yaqin qolganda yiqilib tushdi, *biroq* unga hech kim parvo qilmadi.

Sinonimlarni adib qanchalik ko'p qo'llasa, uning mahoratiga shunchalar tan beramiz. Sinonimlar tilning jozibadorligini oshiradi, boshqalarga taa'sirini kuchaytiradi. Sinonimlar ma'no jihatidan o'sib boradi, ularni o'z o'rnida qo'llash lozim.

Bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlar sinonimlar deyiladi. Masalan, beparvo, befarq, betashvish, loqayd; chiroyli, go'zal, barno va hokazo. Sinonimlar bir narsa yoki hodisaning har xil belgilarini nazarda tutib ifodalashi tufayli doimo ham biri o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydi, qo'llangan taqdirda ham ularning ma'nolari bir-biriga aynan to'g'ri kelmaydi. Shu sababdan tillarda mutlaq sinonimlar yo'q deyiladi.³ Buni sinonimlarning ijobiy yoki salbiy bo'yoqdorligiga misol qilishimiz mumkin. Bashara so'zi o'rnida jamol so'zini qo'llash mumkin emas. Shuningdek o'g'il bolalarga nisbatan jamol, oraz, chehra so'zlarini ishlata olmaymiz. Faqatgina she'rlarda ham ishlatishimiz mumkin.

References:

1. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
2. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abdusalova Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
3. H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – "Talqin" – 2005
4. M. T. Irsqulov Tilshunoslikka kirish Toshkent - 2009

³ M. T. Irsqulov Tilshunoslikka kirish Toshkent - 2009